



O'zbekistonda etnodemografik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari

Mirzaliyev Ulug'bek

Tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori dotsent

Rajabova Hulkaroy

Guliston davlat pedagogika instituti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda 1897-1989 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yhatlaridagi etnik va demografik o'zgarishlar, migratsiya jarayonlarining ta'siri va yillar davomida millatlar sonining ortib borishi bo'yicha statistik ma'lumotlar taqdim etilgan. Bu muammoning o'rganilganlik darajasi va o'tkazilgan aholi ro'yxatlari asosidagi etnodemografik ma'lumotlar manba sifatida tahlil qilingan, tarixni ob'yektiv yoritishda aholi ro'yxatlaridagi etnodemografik ma'lumotlarning tarixiy aspektlari ko'rsatilgan hamda aholi ro'yxatlarining ilmiy-tarixiy manba sifatidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy guruhlar, etnik guruhlar, demografiya, etnodemografiya, tarixiy aspekt, manba, millatlar xolislik, xalq, qadriyat, urf-odat, aholi ro'yxati, statistik ma'lumotlar, milliy tarkib, demografik xususiyatlar, aholi dinamikasi

Dunyodagi davlatlarning siyosiy tarixi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi unda istiqomat qilayotgan xalqlarning o'zaro munosabatlari, demografik xususiyatlari bilan bog'liq. O'zbekiston dunyodagi ko'p millatli davlatlar qatoridan o'rin olgan. Ko'p millatli mamlakatimizda xalqlar, millatlar tinch-totuvligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham belgilab berilgan. O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida yashab mehnat qilayotgan har bir fuqaro millati, irqi, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini



tashkil etadi. Shuningdek, Respublikada yashovchi har bir xalqni o‘z urf-odatlarini, qadriyatlarini san’atlari bor va ularga O‘zbekistonda alohida e’tibor beriladi, hurmat ko‘rsatiladi. Xalqlarni demografik jihatlari, ya’ni, soni, yosh-jinsiy tarkibi, oilanikoh munosabatlari, tug‘ilish, o‘lim, ajrim, migratsiya kabi jarayonlarini muntazam o‘rganib borish Respublikada barcha xalqlar bir bo‘lib, barqaror rivojlanib borishida dolzarb ahamiyatga ega. Etnodemografiya o‘z tadqiqotlarida asosan etnik statistika, aholi ro‘yxatlari ma’lumotlari, maxsus etnodemografik, madaniy-maishiy tadqiqot natijalaridan foydalaniladi. Shuningdek etnodemografik tadqiqotlar etnik guruhlarining turli jihatlari o‘rganuvchi qator ijtimoiy va tabiiy fanlar (geografiya, psixologiya, sotsiologiya, demografiya, antropologiya, ekologiya, meditsina va x.k) tadqiqotlariga ham asoslanadi, chunki, etnik guruhlar juda ko‘p fanlarning tadqiqot ob’yektidir. Etnodemografik tadqiqotlarda aholi soni va tarkibini (yosh-jinsiy, nikoh, oilaviy) o‘rganish alohida ahamiyatga egadir. Dastlabki aholi ro‘yxati hozirgi O‘zbekiston hududini hamma aholisini qamrab olmagan. Mazkur aholi ro‘yxatida O‘zbekistonda o‘zbek, tojik, rus, qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoq millatlari, ularning hududiy tarqalishi, ma’lumotlilik va jinsiy tarkibi haqida ma’lumotlar keltirilgan. 1926 yilda O‘zbekistonda o‘tkazilgan aholi ro‘yxatida 65 ta millat yashaganligi haqida, 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989 yilda o‘tkazilgan aholi ro‘yxatlarida esa millatlar soni ko‘payib 120 dan oshganligi haqida ma’lumotlar mavjud. O‘zbekiston aholisining milliy tarkibi va ularning demografik jarayonlari haqida eng aniq ma’lumotlar aholi ro‘yxatlari o‘tkazish yo‘li bilan to‘planadi. O‘zbekistonda ana shunday aholi ro‘yxatlari 1897, 1926, 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989 yillarda o‘tkazilgan. Adabiyotlar tahlili. Etnodemografik tadqiqotlar alohida fan yo‘nalishi sifatida XX asrdan boshlab mavjud bo‘lib, XX asrning birinchi yarmida rossiyalik aholishunos M.V.Ptux 1897 yil aholi ro‘yxati asosida Yevropada yashagan 11 xalqning o‘lim jarayonini o‘rgangan. V.I. Kozlov etnik demografiya bo‘yicha tadqiqot olib borib xalqlarning etnodemografiyasini o‘rgangan. Dunyo aholisining milliy tarkibi, ular soni dinamikasidagi o‘zgarishlar va demografik jarayonlari



xususiyatlarini o'rganish bo'yicha S.I.Bruk juda ahamiyatli etnodemografik asarlar yaratgan. O'zbekistonda ham tarixchi va aholishunos olimlar tomonidan o'lkada yashayotgan o'zbek, tojik, qirg'iz kabi mahalliy millatlar, rus, ukrain, tatar, koreys kabi ko'p sonli millatlarning demografik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Bularga M.Karaxanov, V.Gentshke, R.Murtazaeva, O.Ata-Mirzaev, M.Bo'rievlar olib borgan tadqiqotlar misol bo'la oladi. Mazkur tadqiqotlarda asosan, O'zbekiston aholisining milliy tarkibi, etnik guruhlar soni, oilaning shakllanishi, tarkibi va demografik faoliyatlari o'rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi. Taqdim etilayotgan maqolada O'zbekistonning etnodemografik xususiyatlari tarixi aholi ro'yxatlarida ifodalanishi o'rganilgan, o'lka aholisining milliy tarkibidagi o'zgarishlar 1897-1989 yillar uchun tahlil etilgan. Bundan ko'zlanayotgan asosiy maqsad O'zbekistonda o'tkazilgan aholi ro'yxatlaridagi etnodemografik ma'lumotlarni xalqlar demografik tarixini o'rganishda asosiy manba sifatida tahlil etishdir. Bu maqsadni bajarish uchun quyidagi tadqiqot usullari belgilandi: etnodemografik ma'lumotlar va ularni o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni tahlil etish; aholi ro'yxatlari va ularni etnodemografik ma'lumotlarni o'rganishdagi ahamiyatini aniqlash; O'zbekistonda o'tkazilgan aholi ro'yxatlari va ularda aholining milliy tarkibi, soni, oila, nikox, ijtimoiy guruhlar shakllanishining etnik xususiyatlarini o'rganish hamda tarixiy taqqoslash, mantiqiy, demografik va statistik kabi uslublardan foydalanildi. Natijalar va munozara. Dunyo yoki uning alohida davlatlarida aholi soni dinamikasi tarixiy rivojlanish xususiyatlarga, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga, demografik vaziyatiga va siyosiy holatiga bog'liq. Shuningdek, har bir davlat, har bir xalqning aholi dinamikasi o'ziga xos harakterga ega bo'lib, bu o'ziga xoslik xalqning rivojlanishi, tarixi, urf-odatlar, qadriyatlar, dini ta'sirida shakllanadi. O'zbekiston hududida aholi soni haqidagi muntazam statistik ma'lumotlar 1897 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxatidan boshlab mavjud bo'lib, 1897 yilda O'zbekiston aholisi 3948,0 mingni, 1920 yili 4470,0 mingni, 1926 yili 4621,0 mingni, 1939 yili 6721,0 mingni, 1959 yili 8119,0 mingni, 1970 yili 11799,0 mingni,



1979 yili 15373,0 mingni va 1989 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxatida esa 19880,0 ming kishini tashkil etgan. Aholi ro'yxatlari ma'lumotlari ko'rsatishicha, O'zbekistonda aholi soni muntazam ko'payib kelgan. Aholi sonining ko'payishi demografik manbalarda qayd etilishicha, aholining tabiiy o'sishi hamda migratsiya hisobiga sodir bo'lgan. XX asrning oxirgi choragiga qadar O'zbekistonda migratsiya ijobiy harakterga ega bo'lgan, ya'ni, ko'chib keluvchilar salmog'i ko'chib ketuvchilar salmog'idan ko'ra ko'proq bo'lgan. Bunday holat O'zbekiston aholisining milliy tarkibiga ham o'ziga xos ta'sir ko'rsatdi. 1897 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati davrida O'zbekiston hududida (Buxoro va Xorazmdan tashqari) asosan 6 ta millat vakillari istiqomat etgan. Bular o'zbeklar – 2352, 4 ming, tojiklar - 1515, 5 ming, ruslar – 44,6 ming, qozoqlar – 153, 6 ming, qirg'izlar – 80, 6 ming hamda qoraqolpoqlar – 93, 2 ming kishidan iborat bo'lgan[11]. 1926 yilgi aholi ro'yxatlarida esa, O'zbekiston aholisining milliy tarkibi kengaydi. XX asr boshidagi siyosiy voqealar, Respublikaga ko'plab ruslar va boshqa Yevropa millatlarining kelishi hamda aholini statistik hisobga olish sifatining yaxshilanishi milliy tarkib ko'rsatkichlariga ta'sir etdi. O'zbekistonda yashovchi millatlar soni 65 dan oshdi. Son jihatidan birinchi o'rinda o'zbeklar (3 475 340 kishi), ikkinchi o'rinda tojiklar (967 728 kishi), uchinchi o'rinda ruslar (246 521 kishi), to'rtinchi o'rinda qozoqlar (106 980 kishi), ulardan keyingi o'rinlarda qirg'izlar, qoraqalpoqlar, ukrainlar, tatarlar, yahudiylar, uyg'urlar kabi millatlar turadi. 1939 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga asosan O'zbekistonda mavjud millatlar soni 97 tadan oshdi. 1926-1939 yillarda Respublika aholisining milliy tarkibida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu o'zgarishlarga asosan ma'muriy bo'linishlar sababli bo'lib, 1929 yilda Xo'jakent okrugini Tojikistonga berish masalasi ko'rildi va Xo'jakent O'zbekiston tarkibidan chiqdi. 1932 yilda Qoraqalpog'iston Avtonom Respublika bo'lib, 1936 yilda O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kirdi. 1939 yilda qoraqalpoqlar soni 181 420 kishini tashkil etar edi. Undan 9 888 kishi shaharda, 171 532 kishi qishloqlarda istiqomat qilgan. 1926-1939 yillarda O'zbekistonda yashayotgan ruslar soni ham



ortib borgan. Shuningdek 1959 yilda Respublikada yashab to‘rgan millatlar soni 113 taga, 1970 va 1979 yillarda 120 taga hamda 1989 yilda 125 tadan ortdi[13]. O‘lkamizning asosiy millati bo‘lmish o‘zbeklar soni 1989 yilda mamlakatimizda 16 697 762 kishini tashkil qilib, shundan 14 142 475 kishi yoki butun SSIJi dagi o‘zbeklarning 84,7 foizi O‘zbekistonda (Tojikistonda – 7,2%, Qirg‘izistonda – 3,3%, Qozog‘istonda – 2,0%, Turkmanistonda – 1,9%, RSFSR da – 0,8% va Ukrainada – 0,1%) istiqomat qilgan[14]. 1959-1989 yillarda o‘zbeklar soni deyarli 3 barobarga oshgan va mamlakatimiz aholisining 71,4 foizini tashkil qildi. Bu, asosan, tabiiy o‘shning yuqoriligidandir. Umuman, o‘zbek, qoraqalpoq, tojik, qozoq, turkman va qirg‘iz kabi mahalliy millatlarda tabiiy o‘sh yuqori bo‘lib kelgan va keyingi 30 yilda ularning o‘rtacha yillik ko‘payishi 3,15 foizni tashkil etdi. 1989 yilda mamlakatda ruslar son va salmog‘i jihatdan ikkinchi o‘rinda to‘rgan. Ularning umumiy soni 1959 yili 1 092 462 va 1989 yil 1 653 478 kishini tashkil qildi. O‘zbekistonda yashovchi ruslarning son jihatidan o‘sh dinamikasiga nazar tashlasak, eng tez sur‘atda ko‘payish 1959-1970 yillarga to‘g‘ri keladi va o‘rtacha yillik o‘sh 3,5 foizga yaqin bo‘lgan. Buning sababi 1966 yilgi Toshkent zilzilasi bilan so‘ng shaharning qayta qurilishi, jamiyatda yangi sanoat markazlari bunyod etilishi, shu munosabat bilan O‘zbekistonga ko‘plab rus va boshqa yevropalik millatlar jalb qilinganligidandir. O‘zbekistonda ruslarning o‘sh sur‘ati 1970-1979 yillarda har yili o‘rtacha 1,3 foiz, 1979-1989 yillarda esa 0,9 foizni tashkil etdi. 1959-1989 yillarda ruslarning soni umuman ortgan bo‘lsa-da, ammo ularning jumhuriyat aholisi tarkibidagi salmog‘i kamaydi. Buning asosiy sababi, avvalo rus oilalarida birinchidan tug‘ilishning kamayib borishi bo‘lsa, ikkinchidan, shu yillar ichida mahalliy millatlarning tug‘ilish hisobiga tez ko‘payishidir. O‘zbekistonda yashab kelayotgan tatar va qrim tatarlari soni ham salmoqli bo‘lib, aholi ro‘yxati ma’lumotlariga ko‘ra, 1959-1989 yillarda tatarlar soni jumhuriyatimizda 398 275 kishidan 467 829 kishiga, qrim tatarlari soni esa 46 753 dan 188 772 kishiga ko‘paydi. Shu davrda tatarlarning o‘rtacha yillik ko‘payishi 0,5 foizni, qrim tatarlarining o‘rtacha yillik ko‘payishi 4,7



foizni tashkil qildi. Qrim tatarlarining bunday tez sur'at bilan ko'payishi, asosan, ulardagi tug'ilish darajasining nisbatan yuqoriligi hamda keyingi aholi ro'yxati davrida ular sonining ancha aniq ko'rsatilganligidan deb aytish mumkin. Hozirgi paytda ko'plab qrim tatarlarining o'z vatanlariga qaytayotganligini ta'kidlash lozim. O'lkamizda istiqomat qiluvchi ukrain va boshqa millatlar soni ham 1979-1989 yillarda anchagina o'sdi: ular har yili o'rtacha 3,4 foizdan ko'paydi. 1989 yili ukrainlar 153 197 kishiga, boshqirdlar esa 34 771 kishiga yetdi. Jumhuriyatimizdagi koreys, arman, nemis, uyg'urlar esa so'nggi 30 yilda bir tekis, yiliga o'rtacha 1-2 foizdan ko'payib keldi. 1989 yili koreyslar 183 140, armanlar 50 537, nemislar 39 809 va uyg'urlar 35 762 kishini tashkil qildi. Turk va forslar haqidagi ma'lumotlar ilk bor 1970 yilgi aholi ro'yxatida qayd qilingan bo'lib, ularning yillik o'sishi ancha yuqori. Masalan, 1979 – 1989 yillarda turklar 2,2 barobarga ko'paygan va 106 302 kishini tashkil etgan. Forslar esa bu davrda 23,7 foizga ko'payib, 24 779 kishini tashkil qildi. O'zbekistonda ozarbayjon, yunon va yahudiy millatlari vakillari ham istiqomat qiladi. Lekin 1979 – 1989 yillarda ularning bir qismi vatanlariga ko'chib ketishi tufayli, ozarbayjonlar 59 779 nafardan 44 410 kishiga yoki 15,7 foizga, yunonlar 14 025 nafardan 10 453 kishiga yoki 15,5 foizga va yahudiylar 73 920 nafardan 65 493 kishiga yoki 11,4 foizga kamaydi. O'rta Osiyo yahudiylarining soni 1959 yilda 21 324 kishi va 1989 yilda esa 28 369 kishini tashkil qilgan. Ularning tabiiy o'sishi boshqa yahudiylarga qaraganda ancha yuqori bo'lgan. O'zbekistonda ruslar asosan shaharlarda, sanoat markazlarida yashagan. Masalan, olib borilgan aholi ro'yxatlariga ko'ra, jami ruslarning 42,4 foizi Toshkent shahrida, 19 foizi Toshkent viloyatida, 8,1 foizi Buxoro viloyatida, 6,9 foizi Samarqand shahrida, 7,5 foizi Farg'ona viloyatida va 16,1 foizi qolgan viloyatlardagi shaharlarda istiqomat qilishgan. Qrim tatarlari, yahudiy, ozarbayjon va armanlar kabi nisbatan kam sonli millatlarning aksariyati Toshkent shahri va Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon va Farg'ona viloyatlaridagi shaharlarda joylashgan edi. XX asrning ikkinchi yarmidan etnodemografiya sohasidagi amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari asta-



sekin katta ahamiyat kasb etib bordi. Ayniqsa etnik guruhlarda aholining tabiiy usish jarayonlari xalqlarning urf - odatlari, madaniyat va qadriyatlari ham ta'sir etishi tadqiqotlar orqali ifodalab berildi. Etnodemografiyada etnik guruhlarning demografik jarayonlari tarixiy aspektida o'rganiladi. Etnik guruhlarni o'rganish dunyodagi har bir ko'p millatli davlatlarning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda, shu bilan birga unda yashayotgan barcha ko'p millatli xalqlarning urf-odatlari qadriyatlarini o'rganishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Aholini to'liq ro'yxatdan o'tkazish orqali ma'lum xududdagi aholi soni, dinamikasi, etnik jarayonlari haqida aniq ma'lumot to'planadi. Dastlabki aholi ro'yxatlarida mavjud millatlarning xududiy tarqalishi, ma'lumotlilik va jinsiy tarkibi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Davlatlarning rivojlanishida jamiyatning o'rni o'ziga xosdir, zero har bir davlatni ma'lum bir millat tashkil etadi. Aholi tarkibida millatlarni ro'yxatga olish va ularda etnodemografik jarayonlarni o'rganish orqali o'sha jamiyatdagi mavjud ijtimoiy- iqtisodiy muhitni, aholi soni tarkibini, ijtimoiy tarkibini, demografik jarayonlarni, ma'lumotlilik, mehnatga yaroqlilik darajasini jinsiy tarkibi va hokazo ma'lumotlarni olishimiz mumkinligi hozirgi dissertatsiya tadqiqotidan ma'lum bo'ldi. Aholi ro'yxatlaridagi etnodemografik ma'lumot (son dinamikasi yosh-jinsiy tarkibi, tug'ilish o'lim, migratsiya, nikoh, oilaviy holati va hokazo) larning hammasi bevosita bir biriga bog'lik bo'lib, bir jarayondagi o'zgarish albatta ikkinchi bir jarayonning ham o'zgarishiga olib keladi, ular bir-biriga ta'sir qiladi. Masalan, tug'ilishning kamayishi barcha jarayonga bir xilda ta'sir qiladi. Yosh tarkibidagi bolalar soniga nisbatan qariyalar sonining ko'payishiga, nikohda turish tarkibining susayishiga, tug'ilishga nisbatan o'lim jarayonlarining ko'payishiga olib keladi. Demak, aholi takror barpo bo'lishidagi etnodemografik ma'lumotlarni aniq bilib olishda aholi ro'yxatlari katta xizmat qiladi. Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqotning natijasi o'larok shu narsa ma'lumki, O'zbekistonda o'tkazilgan har bir aholi ro'yxatlarining bir biridan farqli jihatlari mavjud, dastlab o'tkazilgan aholi ro'yxatlari o'z dasturiga ega bo'lsada, ular kam ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, dasturning oddiyliги sabab



ularni o'tkazish ancha vaqt talab qilgan. Keyinchalik aholi ro'yxatga olish dasturlari ilmiy asoslarda ishlab chiqilgach, aholi ro'yxatlaridagi ma'lumotlar aniqlashdi va kengayib bordi. Bu ro'yxatlarda endi aholining demografik jarayonlari, ularning iqtisodiy faoliyati, ma'lumotlilik darajasi etnik holati va boshqa ma'lumotlar keltirila boshlandi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Respublikamizda aholi soni dinamikasi muntazam ko'payib borgan, bunga albatta birinchi navbatda tabiiy o'sish va migratsiya katta ta'sir qilgan. Ko'chib keluvchilar salmog'ining ko'payishi, ayniqsa bu xol o'lkamizning chor Rossiyasi qaramligi davrda yanada avj olishi o'z o'rnida O'zbekiston aholisining soniga, milliy tarkibiga o'z ta'sirini o'tkazgan. O'tkazilgan aholi ro'yxatlariga ma'muriy bo'linish holati, urushlar, tabiiy ofatlar ham o'z ta'sir etmay qolmaydi. Masalan ma'lum bir xududning davlat tarkibidan chiqish yoki aksincha qo'shilishi o'sha aholi ro'yxatlarining o'zgarishiga olib keladi. Respublikamizda bu holatni 1926-1939 yillarda O'zbekiston tarkibidan Xo'jakent okrugining chiqishi, Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasining qo'shilishi misolida ko'rishimiz mumkin. Hozirgi tadqiqotdagi etnodemografik ma'lumotlardan aholining jinsiy tarkibi bo'yicha to'plangan ma'lumotlar ham alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Aholi tarkibidagi ayollar va erkaklar miqdoriy ko'rsatkichining mutanosibligi bevosita o'sha hududda nikohga kiruvchilarning, oilalarning, bolalar salmog'ining ko'payishiga olib keladi. Lekin dunyodagi barcha davlatlar aholisining jinsiy tarkibi o'ziga xos va bu har bir davlatning tarixiy taraqqiyotiga, turmush tarziga bog'liqdir. Shunday qilib, aholi ro'yxatlarida keltirilgan etnodemografik ma'lumotlar aholi soni, yosh-jinsiy tarkibi, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish, oila hamda aholi migratsiyasi ko'rsatkichlarining etnik guruhlar bo'yicha ifodalanishi Respublikada yashovchi har bir xalqning demografik tarixini o'rganishda, istiqbolini aniqlashda, demografik bashoratlar ishlab chiqishda muhim ilmiy tarixiy manba sifatida xizmat qiladi.



O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muhiti, xususan, salkam 150-yil mustamlaka bo'lib kelgani uning demografik rivojiga, jumladan, aholining milliy tarkibiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Aholi haqida, ya'ni aholining umumiy soni, hududlar bo'yicha taqsimlanishi, yoshi, jinsi, ijtimoiy va milliy tarkibi, tabiiy o'sishi, migratsiyasi va b. haqida aholi ro'yxati o'tkazish orqali to'liq ma'lumot olinadi. O'zbekistonda aholi ro'yxati keyingi 100-yil ichida bir necha marta (1897, 1920, 1926, 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989-yillarda) o'tkazilgan.

O'zbekiston dunyodagi ko'p millatli respublikalardan biri. O'tgan-yillar ma'lumotlari qiyoslab ko'rilganda, 1939-yilgi aholi ro'yxatida O'zbekistonda 97, 1959-yilgi ro'yxatda 113, 1979-yilgi ro'yxatda 120 dan ortiq millat va elat yashagan. 1989-yilgi aholi ro'yxatidan esa, O'zbekistonda 125 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilib, ularning umumiy soni 19 mln. 810 ming kishi ekanligi ma'lum bo'ldi.

O'zbekistonning tub aholisi o'zbeklar. So'nggi yillarda aholining milliy tarkibida o'zbeklarning hissasi oshdi va hoz. respublika aholisining 80,0 %ni tashkil etmoqda. Respublikada qoraqalpoqlar ikkinchi tub millat hisoblanadi. Ularning umumiy soni 549,2 ming kishiga yoki mamlakat aholisining 2,2 %ga teng. O'zbekiston Respublikasida O'rta Osiyo mahalliy xalqlaridan tojiklar (1237,4 ming yoki 4,9 %), qozoqlar (977,8 ming 3,6 %), qirg'izlar (227,4 ming 0,9 %), turkmanlar (152,3 ming 0,6 %) ham istiqomat etadi. O'zbekistonda yashab kelayotgan tatarlar soni ham anchagina (275,4 ming kishi 1,0 %).

O'zbekistonda aholining ijtimoiy tarkibi turli davrlarda turlicha bo'lgan. Respublikada ishchi va xizmatchilarning soni va ulushi 20-asrning 90-yillarigacha bo'lgan davrda o'sib borgan. Mazkur davrda ishchi va xizmatchilarning ulushi 32,2 % dan 79,7 % gacha ko'paygan. Mustaqillikka erishilgach, ko'p ukladli iqtisodiyot va bozor munosabatlarining shakllanishi ta'sirida aholining ijtimoiy tarkibida katta o'zgarishlar bo'ldi (11-jadvalga q.). Xususiyl mehnat faoliyatida band



aholining tez surʻatlar bilan oʻsishi respublika aholisining ijtimoiy tarkibiga katta taʼsir koʻrsatmoqda.

Keyingi-yillarda roʻyxatga olingan ishsizlar soni ham qisqarib bormoqda. 2002-yilda ularning soni 40,3 ming kishini tashkil etgan boʻlsa, 2005-yilda 27,7 ming kishiga tushdi. 2005-yilda mehnat organlariga ishga joylashtirishda yordam berishni soʻrab 410,3 ming fuqaro murojaat qildi. Bu 2004-yildagiga nisbatan 14,7 ming kishiga yoki 3,4 % ga kamdir. 2005-yilda mehnat resurslari soni 10196,3 mingni tashkil etib, 2004-yilga nisbatan 2,9 % ga koʻpaydi. Nodavlat sektorida band boʻlganlar ulushi 2004-yildagi 76,9 % dan 77,1 % ga yetdi.

Aholining maʼlumotlilik darajasi ning ortib borayotganini respublika da oliy va oʻrta maxsus oʻquv yurtlari va ularda tahsil olayotgan talabalar sonining ortib borishi bilan taqqoslasa boʻladi. Oʻzbekistonda 2002/05-yillarda oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi oʻquv muassasalari soni 973 tagacha koʻpaydi. Ularda tahsil olayotgan oʻquvchilar soni 750,3 mingga yetdi. 2000/01 oʻquv-yilida respublikada 61 oliy oʻquv yurti boʻlib, ularda 183,6 ming talaba tahsil oldi. Mazkur koʻrsatkich 2005/06 oʻquv-yilida muvofiq ravishda 60 va 264,9 mingni tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshtemirova, Saodat Abdurashidovna (2021) “ETHNO-DEMOGRAPHIC DATA IN THE POPULATION CENSUSES CONDUCTED IN UZBEKISTAN AS A SCIENTIFIC HISTORICAL SOURCE” / Mental Enlightenment ScientificMethodological Journal: Vol. 2021: Iss. 06 , Article 27.
2. Буриева М.Р. Демография асослари. – Т.: 2001.
3. Буриева. М.Р. Демография асослари. Т.: 2001. 33-34-бетлар.
4. ЦГА. РУЗ., Ф. 1619, оп. 11. Д5. Л2



5. Птух М. Смертность 11 народностей Европейской России в конце XIX в., -К.: 1928.
6. Козлов В.И. Этническая демография. М.:1977
7. Брук С.И. Население мира. М.:1981
8. Караханов М.К. Некапиталистическая путь развития и проблемы народанаселения. – Т.: 1983.
9. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. Ташкент. 1998.
- 10.ЦГА РУз Ф. 1619, оп 11.95. Л.2.
- 11.Всесоюзная перепись населения 1939 года. ЦГА РФ, Ф.1, оп. 3, д.620. л.73, 78, 79, 80, 81.
- 12.Итоги всесоюзной переписи населения 1959 года. Узбекская ССР. – М.: 1962. Стр. 138-143. Итоги всесоюзной переписи населения 1989 года. Национальный состав населения Узбекской ССР. – Ташкент, 1990, стр. 51-68.
- 13.Saodat Abdurashidovna Toshtemirova, (2021). Ethnodemographic Information As A Source In Population Censuses (On The Example Of Uzbekistan) / The American Journal of Applied Sciences, 3(04), 256-263.